



JAMOAT TARTIBI TUSHUNCHASINING NAZARIY AHAMIYATI

O'lmasov Abdullajon Baxromjon o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
70420113 - Jinoyat qonunchiligini qo'llash
nazariyasi va amaliyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19967836>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

Jamoat tartibi va *“jamoat xavfsizligi” tushunchalari o'rtasidagi munosabat masalasi ma'muriy huquq nazariyasida noaniqdir. Ushbu tushunchalarni ularning munosabatlari nuqtai nazaridan to'liq va qisman ko'rib chiqish zarurligi haqida fikrlar xam mavjud. Ushbu nuqtai nazarni S.V.Nesterov va bir qator boshqa olimlar qo'llab quvvatlaydi.*

ABSTRACT

Jamiyat har doim rivojlanishda bo'lganidek, jinoyatchilik ham rivojlanib, murakkablashib va takomillashib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ochish borasida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari, qolaversa barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini takomillashtirish davr talabidir.

Jamiyat har doim rivojlanishda bo'lganidek, jinoyatchilik ham rivojlanib, murakkablashib va takomillashib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ochish borasida xizmat olib borayotgan ichki ishlar organlari, qolaversa barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini takomillashtirish davr talabidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni jazolashdan afzaldir, ya'ni huquqbuzarliklarning sodir etilishi natijasida fuqarolar, davlat va jamiyat ham iqtisodiy, ham ma'naviy zarar ko'radi.

Darhaqiqat, jamoat tartibi tushunchasiga yangicha ta'rif berilishi va bunda fuqarolarning *“shaxsiy xavfsizligini ta'minlash”* va *“jamoat xavfsizligini ta'minlash”* tushunchalariga alohida ahamiyat berilishi bu uchta (jamoat tartibi, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash) tushunchalarni o'zaro bog'liqligini, bir-biriga kirishib ketganligi va bir-birini taqozo etuvchi tushunchalar ekanligini ta'kidlaydi. Jamoat tartibining yuqorida keltirilgan ta'rifi amalda jamoat tartibini saqlash bu bir vaqtning o'zida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va jamoat xavfsizligini ta'minlashdan iboratligiga asoslanadi. O'z navbatida

fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va jamoat xavfsizligini ta'minlash jamoat tartibini saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Masalan, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi holati – uning hayoti, salomatligi, shaxs erkinligi, turar joy daxlsizligi va boshqalarga qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir etilishi munosabati bilan buzilishi mumkin. Ko'pchilik kishilarning xavfsizligi holati, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning normal faoliyat ko'rsatishi, ya'ni jamoat xavfsizligi holatiga kishilarning ommaviy to'planishlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar sharoitida xavf tug'dirilishi mumkin. Bunda jamoat tartibini saqlashni samarali tashkil etilishi kishilarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligiga xavf solayotgan jinoiy tajovuzlarni bartaraf etish imkonini beradi.

“Jamoat tartibi” va “jamoat xavfsizligi” tushunchalari o'rtasidagi munosabat masalasi ma'muriy huquq nazariyasida noaniqdir. Ushbu tushunchalarni ularning munosabatlari nuqtai nazaridan to'liq va qisman ko'rib chiqish zarurligi haqida fikrlar xam mavjud. Ushbu nuqtai nazarni S.V.Nesterov¹ va bir qator boshqa olimlar qo'llab quvvatlaydi².

Yana bir e'tiborga loyiq yondoshuv mavjud bo'lib, unga ko'ra, “jamoat tartibi” tushunchasi “jamoat xavfsizligi” toifasiga qaraganda mazmunan torroqdir. Xususan, A.V.Gotovsevning ta'kidlashicha, agar jamoat tartibining maqsadi faqat fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash bo'lsa, jamoat xavfsizligi daxlsizligi va boshqa manfaatlar hamda obyektlar, xususan, odamlar, mulk, jamiyat uchun xavf tug'diradigan va ortib borayotgan xavf manbalarining xavfsiz ishlashini ta'minlashdir. Bundan u “jamoat xavfsizligi” tushunchasining jamoat tartibiga nisbatan kengroq mazmuni haqida xulosa chiqaradi³.

Demak, “jamoat tartibi” “jamoat xavfsizligi”ga qaraganda kengroq tushunchadir. Biroq, o'z o'rnida “jamoat tartibini saqlash faoliyati” “jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati”ga nisbatan tor tushuncha bo'lib, u bevosita ichki ishlar organlarining tegishli xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamoat tartibini saqlash faoliyatining ichki ishlar organlaridagi boshqa faoliyat yo'nalishlaridan farqli jihati uning muayyan joylarda amalga oshirilishidir. Jamoat tartibini saqlash joylarini ikkiga: *jamoat joylariga* va *aholi turar joylariga* ajratish mumkin.

Fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi yoki jamoat xavfsizligiga tahdid ommaviy tadbir o'tkazish qoidalari buzilganda, bunday tadbirlarni o'tkazish joyi tayyor bo'lmaganda yoki ommaviy tadbirlar vaqtida ko'plab fuqarolarning harakat yo'nalishlari va tartibi belgilanmagan vaqtlarda ham vujudga kelishi mumkin. Fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligiga tahdid tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarda ham albatta yuzaga keladi.

Tabiiy ofatlar, ekologik falokatlar, epidemiya, epizootiya, yong'inlar, jamoat tartibini ommaviy buzishlar yoki ommaviy tartibsizliklar sharoitida odamlarning hayoti va sog'lig'i, huquq va erkinliklarini himoya qilish, moddiy boyliklarini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash, turli korxonalar, tashkilot va muassasalarning bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash bilan bog'liq, qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. O'zbekiston

¹ Нестеров С.В. Общественная безопасность как правовая категория // Аграрное и земельное право. 2012. № 12. – С. 104.

² Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 13.

³ Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 13.

Respublikasining tegishli qonunlarida nazarda tutilgan, favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning barchasi birinchi navbatda fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan. Shu bilan birga ushbu chora-tadbirlar talab darajasidagi jamoat tartibni saqlash, aholining tinchligi hamda davlat va jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi⁴.

"Jamoat tartibi" tushunchasining mohiyatini tushunmay turib, "jamoat tartibini saqlash faoliyati" tushunchasining mazmun-mohiyatini anglab bo'lmaydi. Huquqshunoslik fanida "jamoat tartibi" tushunchasiga olimlar turli ta'riflar berganlar. Bu tushunchaning ta'riflari xilma-xil, ammo bu borada yakuniy ta'rif mavjud emas.

Jamoat xavfsizligi tushunchasi – shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlardan va favqulodda vaziyatlar, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, katta falokatlar, avariya va yong'inlar oqibatida kelib chiqadigan oqibatlardan himoyalanganlik holati tushuniladi⁵.

Jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish deganda, odamlar o'rtasida mavjud bo'lgan odob-axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzish, fuqarolarning huquqlari, mol-mulkiga zarar etkazish, huquqbuzarning harakatlari transport vositalarining vaqtincha to'xtatilishiga sabab bo'lishi kabilarda namoyon bo'ladi deb ta'kidlab o'tgan.

Jamoat tartibi jinoiy-huquqiy himoya obyekti sifatida ijtimoiy munosabatlarning umumiyliigi, jamoat tinchligi, jamoat axloq me'yorlariga rioya qilish, shu jumladan, fuqarolarning qonunlarga bo'ysunadigan barqaror xatti-harakatlari jamoat joylarida transport vositalarining uzluksiz harakati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning uzluksiz faoliyat olib borishi tushuniladi.

M.N.Rustamboevning fikricha, "jamoat tartibi – xavfsizlik va fuqarolarning tinchligi, o'zgarlar mulkini saqlashni, jamoat va davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning bir me'yorda ishlab turishini ta'minlashga yo'naltirilgan odamlar o'rtasidagi axloq va huquq normalariga asoslangan munosabatlar tartibi⁶.

Mazkur munosabatlarga rioya qilinmasligi oqibatida bezorilik jinoyati vujudga keladi. Jamiyatda yurish-turish qoidalarini mensinmaslik mo'ljallanmagan joylarda spirtli ichimliklar iste'mol qilish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish, uyatli so'zlar bilan so'kinish, jamoat joylarida ochiqchasiga hojat chiqarish, yalong'och holda bo'lish, hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish, o'simliklarga zarar etkazish kabi umum e'tirof etilgan odob-ahloq qoidalariga mensinmaslikda ifodalanadi. Qonun mazmuniga ko'ra, aybdor o'zining harakatlari bilan jamoat tartibini buzayotganligini anglab etishi lozim. Mazkur holatda huquqbuzarning

⁴ Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati:Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi / A.S. Tursunov, I. Ismailov, I.Yu. Fozilov, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, S.B. Xo'jaqulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G'ofurov.Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 145. b.

⁵ Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati:Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi / A.S. Tursunov, I. Ismailov, I.Yu. Fozilov, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, S.B. Xo'jaqulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G'ofurov. Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 145. b.

⁶ Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik.2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 207 bet.

ushbu xatti-harakatlari bilan jamoat tartibini buzish o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lishi shart. Sababiy bog'lanish bo'lmagan holatda qilmish shaxsga yoki mulkka qaratilgan huquqbuzarlik yoki jinoyat deb malakalanadi.

Yuridik adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta'riflarning tahlilidan quyidagi mualliflik ta'rifini berish mumkin: *"Jamoat tartibi – bu fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishlari va dam olishlari uchun to'liq sharoit yaratishga, ularning sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan, huquqiy va ijtimoiy me'yorlar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir"*.

Shuningdek, huquqshunoslikda "jamoat tartibi"ga yaqin yana bir tushuncha – "jamoat joyi" va "huquq-tartibot" tushunchalari ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodeksining ko'pgina moddalarida "jamoat joyi" tushunchasiga duch kelamiz. Jumladan, jamoat joylarida tamaki mahsulotini iste'mol qilish (56¹-moddasi), mayda bezorilik (183-moddasi), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (184²-moddasi), sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni olib yurish (185²-moddasi), jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish (187-moddasi), tilanchilik qilish (188³-moddasi), bayroqlar va vimpellardan g'ayriqonuniy foydalanish, plakatlarni, emblemalar va ramzlarni tayyorlash, tarqatish yoki taqib yurish (203-moddasi), favqulodda holat tartibi sharoitida jamoat tartibiga tajovuz qilish (205-moddasi), yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish (211-moddasi)⁷ kabi huquqbuzarliklar va bezorilik oqibatida qasddan badanga og'ir shikast etkazish (JK 104-modda, 2 qism "e" bandi), terrorizm (JK 155-modda), ommaviy tartibsizliklar (JK 244-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244¹-modda), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244³-modda), bezorilik (JK 277-modda), qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-modda) shular jumlasidandir.

Biroq qonun chiqaruvchi, ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga jamoat joylari ro'yxatlarini kiritgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonun 19-moddasida ish joylari, ko'chalar, stadionlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, jamoat transportining barcha turlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport sog'lomlashtirish muassasalari, yong'in chiqish xavfi bo'lgan joylar, shu jumladan avtomobillarga yonilg'i quyish shohobchalari jamoat joylari sirasiga kiritilgan⁸.

Bundan tashqari, "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida quyidagilar jamoat joylari sifatida ta'kidlangan: stasionar savdo obyektlari, shuningdek umumiy ovqatlanish korxonalari, bundan chilim va elektron sigaretalar chekish uchun maxsus ajratilgan xonalar mustasno; kinoteatrlar, teatrlar,

⁷ Oxunov Z. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 185-188.

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonuni. Elektron manbaga murojaat: <https://lex.uz/acts/1880029>.

sirkalar, konsert, ko'rik va ko'rgazma zallari hamda ommaviy dam olish uchun mo'ljallangan boshqa yopiq inshootlar; klublar, diskotekalar, kompyuter zallari, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun jihozlangan xonalarda yoxud boshqa ko'ngilochar (bo'sh vaqt o'tkaziladigan) joylar; muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari va ma'ruzaxonalar; mahalliy va uzoqqa qatnaydigan poezdlar, shahar atrofiga qatnaydigan poezdlarning vagonlari (shu jumladan tamburlar), daryo kemalari, shahar, shahar atrofiga, shaharlararo va xalqaro qatnaydigan avtobuslar, taksilar, yo'nalishli taksilar hamda shahar elektr transporti, shuningdek havo kemalari; er osti o'tish joylarida, transport bekatlari va avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash joylari; aeroportlarning, temir yo'l, avtomobil vokzallarining va suv transporti bekatlarining binolari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning binolari; sog'liqni saqlash tizimi muassasalari va tashkilotlarida, ta'lim muassasalari, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari; ish joylari bo'lgan xonalar; ko'p kvartirali uylarning yo'laklari, shuningdek uylar oldi hududida joylashgan bolalar va sport maydonchalari; xiyobonlar, bog'lar, ko'chalar va boshqa jamoat joylari⁹ hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ish joylari, sog'liqni saqlash, ta'lim, sport-sog'lomlashtirish muassasalarida shaxs tamaki iste'mol qilayotgan vaqtda odamlarning mavjud bo'lmasligi bevosita o'zgarlar sog'lig'iga tajovuzni ham keltirib chiqarmaydi. Bu esa ushbu qilmishni huquqbuzarlik deb topmasligimiz uchun asos bo'ladi.

Ularning o'zaro farqi xususida shuni aytish kerakki, jamoat tartibi – bu yuridik va boshqa ijtimoiy qoidalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar bo'lib, huquq-tartibotni ham "qamrab oladi". Huquq-tartibot esa faqat amaldagi huquqiy normalarga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatlari ham uzviy bog'liq. Negaki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash orqali huquqbuzarliklarning oldi olinsa, jinoyatlarning oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini bartaraf qilish orqali jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashga erishiladi.

Jamoat tartibini saqlash, odamlarning jamoat joylarida qonunga mos xulq-atvorda bo'lishlarini ta'minlash, jamoat joylarida, aholi punktlarida fuqarolarning mehnat qilishlari va dam olishlarida tinchlikni saqlashda profilaktika inspektorlarining muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Xullas, jamoat tartibi tushunchasini quyidagi qismlarini ajratib ko'rsatish zarur:

1. Jamoat tartibi mazmuni-odamlarning jamoat joylardagi xulq-atvori, xatti-harakati va nohuquqiy xarakterdagi huquq va qoidalar me'yorlarini bajarish va ularga rioya qilish natijasida yig'ilib boriladigan yurish-turishlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

2. Jamoat tartibini boshqarish vositalari – nohuquqiy xarakterdagi (axloq, urf-odatlar normalari, xulq-atvor madaniyat qoidalari) huquqiy me'yoriy va qoidalardir.

⁹ O'zbekiston Respublikasining "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida"gi qonuni. Elektron manbaga murojaat: <https://lex.uz/uz/docs/3803253>

Jamoat tartibini o'rnatish va qo'llab quvvatlashdan maqsad- fuqarolarning hayotini, sog'lig'i, vijdoni, qadr-qimmatini, boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat osoyishtaligini, davlat jamoat tashkilotlarining normal faoliyat ko'rsatishlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Нестеров С.В. Общественная безопасность как правовая категория // Аграрное и земельное право. 2012. № 12. – С. 104.
2. Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 13.
3. Готовцев А.В. Организационно-правовые вопросы взаимодействия милиции и внутренних войск в охране общественного порядка: Автореф. ... дис. канд. юрид. наук. – М., 2000. – С. 13.
4. Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati:Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi / A.S. Tursunov, I. Ismailov, I.Yu. Fozilov, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, S.B. Xo'jaqulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G'ofurov.Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 145. b.
5. Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati:Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi / A.S. Tursunov, I. Ismailov, I.Yu. Fozilov, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, S.B. Xo'jaqulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G'ofurov. Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 145. b.
6. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 5. Maxsus qism. Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik.2-nashr,to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 207 bet.
7. Oxunov Z. Jamoat joylarida sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka oid ayrim mulohazalar //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 185-188.
8. O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi qonuni. Elektron manbaga murojaat: <https://lex.uz/acts/1880029>.
9. O'zbekiston Respublikasining "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida"gi qonuni. Elektron manbaga murojaat: <https://lex.uz/uz/docs/3803253>